

CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI METODLAR TAHLILI.

Velimurodova Sanjana Ahmadjon qizi

Qarshi Davlat Universiteti , Xorijiy tillar fakulteti , Filologiya va tillarni o'qitish
(ingliz tili) yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:02.06.2026

Revised: 03.06.2026

Accepted:04.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

kommunative, metod,
passiv, aktiv, tamoyil,
nutq.

Ushbu maqolada turli davrni o'z ichiga olgan , amaliyotda sinalgan hamda til o'rganuvchilar uchun qo'llanilgan metodlar atroflicha qiyoslanadi va tahlil qilinadi. Har bir faoliyatda afzalliklar va kamchiliklar bo'lishini inobatga olgan holda , bu maqolada quyidagi metodlarning positiv va negativ tomonlari asosli tarzda yoritiladi.

Til insonlar orasidagi eng mukammal aloqa vositasi bo'lganligi sababli turli dunyo tillarini o'rganish tendendiyasi yildan-yilga oshib bormoqda. Chunki, til bilish insonlarga nafaqat shaxsiy balki kasbiy muvaffaqiyat imkoniyatini taqdim etadi . Ammo til har doim rivojlanadi, tillardagi lug'at tarkibi doimiy bir qancha usullar: o'zlashma so'zlar, fan - texnika rivoji, yasama so'zlar orqali boyib boradi . Tabiiyki, tillarni o'rganishdagi metodlar ham yangilangan yoki avvalgilariga o'zgartirishlar kiritiladi . Quyida bir qancha metodlar ko'rib chiqamiz. To'gridan - to'g'ri medoti [direct or natural method] - Angliyada 1900-yillar oralig'ida tashkil etilgan va grammatika-tarjima usuli [Grammar - translate technique : ommabop yo'nalish bo'lib , faqatgina til grammatikasini va yangi so'zlarni tarjima qilish orqali o'rganilgan] va boshqa an'anaviy yondashuvlar, shuningdek, C.J. Dodsonning ikki tilli usuli bilan taqqoslanadi. U 1970-yillarda Berlitz, Alliance Française va Inlingua School of Langua kabi asosiy xalqaro til maktablari tomonidan qabul qilingan. AQSh Davlat departamenti Tashqi ishlar institutining ko'plab til bo'limlarida ushbu usul 2012-yildan boshlab qo'llanilgan. Bu usul til o'rganish mashg'ulotlari to'liq o'rganilayotgan tilda olib borilishi hamda yangi so'zlar

visual tarzda (ko'rish orqali) yod olinishiga , grammatika tushunish va vaziyatni anglash orqali tushuntirilishiga tayanadi. Shu o'rinda Konfutsiyning :“Eshitaman — unutama, ko‘raman — eslayman, qilaman — tushunaman ” iqtibosiga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Ushbu usulning asosiy jihatlari:

I. Yangi so'z, raqam, alifbo belgisi, jumla yoki tushunchani (Element deb ataladi) bir nechta usul yordamida yangi tilda tushuntirish:

• KO'RSATISH [See] O'quvchi o'rgatilayotgan narsani aniq tushunishi uchun vizual yordam yoki imo-ishoralar (fe'llar uchun masalan : suzmoq , chizmoq...)bilan o'rganadi

• AYTISH [Say] O'qituvchi og'zaki ravishda elementni ehtiyotkorlik va to'g'ri talaffuz bilan tanishtiradi.

Bu gapirish hamda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

• SINAB KO'RISH [Try] O'quvchi yangi elementni talaffuz qilish uchun turli xil urinishlar qiladi.

Amaliy yondashuv nazariyga qaraganda foydaliroq.

• QOLIBGA SOLISH [Mould] O'qituvchi zarur bo'lganda o'quvchini tuzatadi, lablar, til va tishlarga bo'lgan munosabatni to'g'ri shakllantirish uchun og'ziga ishora qiladi.

• TAKRORLASH...[Repeat] O'quvchi har bir yangi so'zni 5-20 marta takrorlaydi.

[6/1/2026 6:27 PM] Sanjana: Chunki , o'rganilayotgan bilim mustahkam xotirada saqlanishi uchun kamida 7 marotaba qo'llanilishi yoki duch kelish kerakligi isbotlangan.Bu o'rinda o'qituvchilardan talab qilinadigan narsalar : e'tiborliroq bo'lish ; dars jarayoni xonadagi barcha qatnashuvchilarni jalb eta olishini nazorat qilish ; asosiy[basic] so'zlarni birinchi o'rgatish, ya'ni "To Trim" yoki "To Sail" kabi noodatiy fe'llardan oldin "To Go" va "To Be" kabi ko'p qo'llanadigan fe'llarni o'rgating; shuningdek, Olma va Apelsinni olxo'ri va xurmodan oldin o'rgatish .

II. Sintaksis, gapdagi yangi elementning to'g'ri joylashuvi:

• AYT VA TAKRORLASH..[Say and Rpeat] O'qituvchi o'quvchiga ibora yoki gapni aytadi; o'quvchi buni 5-20 marta takrorlaydi. Bunda so'zlar emas undan kattaroq til aspektlariga e'tibor beriladi .

• INKOR SAVOL VA JAVOB [Aks and reply in negative] O'qituvchi elementni yoki gapni salbiy holatlarda ishlatadi (masalan, "Siz departmentda ishlaysizmi ?" yoki "Siz otanamisiz ?").

• SO'ROV JAVOBLARI.[Interrogations]O'qituvchi 5 ta "wh question " (Kim- who , Nima-what, Qayerda- where , Nima uchun-why, Qachon-when) yoki Qanday qilib(how)

intuitiv misollar keltiradi. Bu so'roq olmoshlari o'quvchilarni yanada kengroq fikrlashga va javoblarni to'liqroq ifodalashga ko'maklashadi.

• FOYDALANISH VA SAVOLLAR...[Use and questions] O'quvchilar o'qituvchilar roliga ishtirok etadilar . Bu jarayonda ishtirokchilar to'g'ri elementlarni tanlashni , savol berishni va yangi so'zlarni talaffuzini o'rganishadi. Bu o'rganish metodi orqali hozirda aksariyat til ixlosmandlarida kuzatiladigan muammolarga : ko'proq lug'atlarni shunchaki yodlash va ularni gapirish davomida eslay olmaslik , ko'r-ko'rona grammatik qoidalarni o'rganish va ularni qo'llaganda xatolarga duch kelish , gapirishdagi to'xtalishlar , qo'rquv , fikrini yetkazib berolmaslik kabi muammolarga yechim topiladi. Har yaxshining bir yomoni bo'lgani kabi , ushbu metod ham kamchiliklarga ega. Avvalo cheklangan so'zlar : ko'plab lug'atlarning visual ko'rinishi yo'q (mehribonchilik , do'stona , qayg'urish , tinchlik , shayton , osoyishtalik) .Bundan tashqari , " real voqelik" ni tasavvurda gavdalantirish biroz vaqt va pedagogik mahorat talab qiladi , chunki barcha insonlar dunyoqarashi va hayolot doirasi turlicha.

Asosiy go'yasi : “Til — bu aloqa vositasi” bo'lgan KOMMUNATIVE METOD ko'proq muloqot jarayoniga hamda ko'nikmasiga tayanadi. Bu 1960–1970-yillarda Yevropada Grammar-Translation va Audio-Lingual metodlarining amaliy nutqni rivojlantirishda yetarli samaradorlik bermagani sababli paydo bo'ldi.Amerikalik tilshunos Noam Chomsky til bilimini faqat grammatik qoidalar va passiv (kam qo'llanadigan) lug'atlar kompetensiya bilan cheklab bo'lmasligini ta'kidlagan bo'lsa, Dell Hymes bu tushunchani kengaytirib, “kommunikativ kompetensiya” atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. Unga ko'ra, til o'rganish — bu nafaqat grammatik jihatdan , balki uni qayerda, qachon va qanday vaziyatda ishlatishni bilish demakdir.

Keyinchalik D. A. Wilkins, H. Widdowson, C. Brumfit kabi olimlar tomonidan kommunikativ yondashuv nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirildi. Bu metodning bir qancha afzalliklari mavjud.Birinchidan, o'quvchilarda real muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Talabalar dars jarayonida faqat grammatik qoidalarni emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar.

Ikkinchidan, bu metod nutq faoliyatini faollashtiradi. Rolli o'yinlar, munozaralar, juftlik va guruhli faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ushbu metod kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi, ya'ni o'quvchi tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri ishlatishni o'rganadi. Bu ularning tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Kamchiliklariga qaraydigan bo'lsak , grammatik aniqlik e'tibordan chetda qoladi . Nuqtda ularni tez-tez xato qo'llash tinglovchiga noqulaylik tug'diradi. Bundan tashqari , yuqori kasbiy

malakaga ega xodimlar zarur. Chunki darsni interaktiv tashkil etish , resurs va manbalarni to'g'ri tanlash juda muhim.

[6/1/2026 6:27 PM] Sanjana: Hamda ba'zi bolalar (tabiatan uyatchan va tortinchoq) uchun bu metodda o'tiladigan mashg'ulotlardan ko'ra Task-Based [vazifalar berish orqali] yoki Grammar-Translation usuli foydaliroq.

Harbiylar yoki Armiya metodi kabi nomlar ega Audio-Lingual usuli - XX asrning 1940–1950-yillarida AQShda ikkinchi jahon urushi davrida xorijiy tillarni qisqa vaqt ichida samarali o'rgatishga bo'lgan ehtiyoj sababli shakllangan. Metodning nazariy tomondan behaviorizm psixologiyasiga borib taqaladi. Ya'ni Amerika psixologi B. F. Skinner til stimulus – response – reinforcement (rag'bat - javob - kuchaytirish) zanjiri orqali o'rganilishini ta'kidlagan . Tilshunos Charles Fries esa ushbu nazariyani til o'qitish metodikasiga tadbiq etib, Audio-Lingual metodni rivojlantirgan. Avval tinglash , keyin gapirish , undan so'ng o'qish va yozish tamoyiliga asoslangan metodning ustun jihatlari : tayyor nutq namunalarini ko'p marotaba takrorlangani sababli o'rganuvchilarning tezda muloqotni boshlashi hamda oddiy so'zlashuv birliklarini tushunishi , intonatsiya va talaffuzga e'tibor berilishi (bu robotic gapirishga [robotga o'xshab bir tonda , hissiy ifodalarsiz nutq] yo'l qo'ymaydi] . Darhaqiqat , kamchiliklar ham yo'q emas . Avvalo , " qoliblarga " tayanish erkin va ijodiy fikrlashni cheklaydi. Boshqa turdagi , mavzudagi savollar berilganda bemalol suhbat qilish bilan bog'liq muammolarga duch kelinadi. Bunday tashqari , to'gridan-to'g'ri va kommunikativ yondashuvdan faqrlari ravishda til mexanik o'rganilganligi uchun uni ongli tushunishga to'sqinlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda , yuqoridagi metodlar til o'rganish " sayohatida " bir - birini to'ldiruvchi omillar sanaladi. Har birining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Shunday ekan ularning kombinatsiyasi asosida ishlab chiqilgan pedagogik ta'lim maqsadga muvofiq. Masalan , til o'rganishning 1-2- oylarida Direct methoddan (lug'at boyligiga e'tibor berish uchun) foydalanish , negaki bu davrda til ixlosmandlari yangi til bilan endi tanishayotgan va yangi so'zlar bilan tanishayotgan bo'lishadi. 3-4- oylarda Audio-Lingual metodi foydaliroq. Chunki yodlangan so'z boyligi yordamida sodda nutqni shakllantirish so'zlarni passivdan aktivga o'tgazishga yordam beradi. Undan keyingi oylarda yoki yillarda KOMMUNATIVE yondashuvning afzalligi ko'proq. Oldingi bosqichlardan o'tgan o'quvchida yangi til haqida tushuncha va ko'nikma paydo bo'ladi . Keyingi qadam uni yanada tabiiyroq , qoliplarsiz mustahkamlashdan iborat .

“Agar biz bugungi bolalarni kechagi usullar bilan o'qitsak, ularning ertangi kunini o'g'irlagan bo'lamiz.”

John Dewey (ta'lim falsafachisi)

[6/1/2026 6:27 PM] Sanjana: Talabalar dars jarayonida faqat grammatik qoidalarni emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar.

Ikkinchidan, bu metod nutq faoliyatini faollashtiradi. Rolli o'yinlar, munozaralar, juftlik va guruhli faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ushbu metod kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi, ya'ni o'quvchi tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri ishlatishni o'rganadi. Bu ularning tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Kamchiliklariga qaraydigan bo'lsak, grammatik aniqlik e'tibordan chetda qoladi. Nuqtda ularni tez-tez xato qo'llash tinglovchiga noqulaylik tug'diradi. Bundan tashqari, yuqori kasbiy malakaga ega xodimlar zarur. Chunki darsni interaktiv tashkil etish, resurs va manbalarni to'g'ri tanlash juda muhim. Hamda ba'zi bolalar (tabiatan uyatchan va tortinchoq) uchun bu metodda o'tiladigan mashg'ulotlardan ko'ra Task-Based [vazifalar berish orqali] yoki Grammar-Translation usuli foydaliroq. Harbiylar yoki Armiya metodi kabi nomlar ega Audio-Lingual usuli - XX asrning 1940-1950-yillarida AQShda ikkinchi jahon urushi davrida xorijiy tillarni qisqa vaqt ichida samarali o'rgatishga bo'lgan ehtiyoj sababli shakllangan. Metodning nazariy tomondan behaviorizm psixologiyasiga borib taqaladi. Ya'ni Amerika psixologi B. F. Skinner til stimulus - response - reinforcement (rag'bat - javob - kuchaytirish) zanjiri orqali o'rganilishini ta'kidlagan. Tilshunos Charles Fries esa ushbu nazariyani til o'qitish metodikasiga tadbiiq etib, Audio-Lingual metodni rivojlantirgan. Avval tinglash, keyin gapirish, undan so'ng o'qish va yozish tamoyiliga asoslangan metodning ustun jihatlari: tayyor nutq namunalari ko'p marotaba takrorlangani sababli o'rganuvchilarning tezda mulqotni boshlashi hamda oddiy so'zlashuv birliklarini tushunishi, intonatsiya va talaffuzga e'tibor berilishi (bu robotic gapirishga [robotga o'xshab bir tonda, hissiy ifodalarsiz nutq] yo'l qo'ymaydi). Darhaqiqat, kamchiliklar ham yo'q emas. Avvalo, "qoliblarga" tayanish erkin va ijodiy fikrlashni cheklaydi. Boshqa turdagi, mavzudagi savollar berilganda bemalol suhbat qilish bilan bog'liq muammolarga duch kelinadi. Bunday tashqari, to'gridan-to'g'ri va kommunikativ yondashuvdan faqrli ravishda til mexanik o'rganilganligi uchun uni ongli tushunishga to'sqinlik qiladi. Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi metodlar til o'rganish "sayohatida" bir - birini to'ldiruvchi omillar sanaladi. Har birining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Shunday ekan ularning kombinatsiyasi asosida ishlab chiqilgan pedagogik ta'lim maqsadga muvofiq. Masalan, til o'rganishning 1-2- oylarida Direct methoddan (lug'at boyligiga e'tibor berish uchun) foydalanish, negaki bu davrda til ixlosmandlari yangi til bilan endi tanishayotgan va yangi so'zlar bilan tanishayotgan bo'lishadi. 3-4- oylarda Audio-

Lingual metod foydaliroq. Chunki yodlangan so'z boyligi yordamida sodda nutqni shakllantirish so'zlarni passivdan aktivga o'tgazishga yordam beradi. Undan keyingi oylarda yoki yillarda KOMMUNATIVE yondashuvning afzalligi ko'proq. Oldingi bosqichlardan o'tgan o'quvchida yangi til haqida tushuncha va ko'nikma paydo bo'ladi . Keyingi qadam uni yanada tabiiyroq , qoliplarsiz mustahkamlashdan iborat .

“Agar biz bugungi bolalarni kechagi usullar bilan o‘qitsak, ularning ertangi kunini o‘g‘irlagan bo‘lamiz.”

John Dewey (ta'lim falsafachisi)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd Edition. Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
2. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. Techniques and Principles in Language Teaching. 3rd Edition. Oxford: Oxford University Press, 2011.
3. Hymes, D. H. On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
4. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. 6th Edition. White Plains, NY: Pearson Education, 2014.
5. Skinner, B. F. Verbal Behavior. New York: Appleton-Century-Crofts, 1957.